



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 15-dekabr, № 267 (8610)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



AVTOMOBILSOZLIKNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-dekabr kuni avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bu sanoat tarmoqlari izchil modernizatsiya qilinmoqda. Logistikadagi qiyinchiliklarga qaramasdan, so'nggi yillarda avtomobil ishlab chiqarish 3 barobar ko'payib, joriy yil yakunida 415 ming donaga yetishi kutilmoqda. Sohada davlat monopoliyasini yo'q qilish va raqobatni rivojlantirish maqsadida 3 ta yangi xususiy korxona va nufuzli xorijiy brendlar jalb etildi. Bugun yurtimizdagi 8 ta zavodda o'nlab turdagi avtomobillar, yuk va yo'lovchi tashish transportlari, qishloq xo'jaligi va maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, bu sohada 2 mingdan ziyod korxonalar yaxlit kooperatsiya tarmog'iga bog'landi va 50 foiz mahalliylashtirish ta'minlandi.

Shu bilan birga, bozorda talab hali ham yuqori. Ham tashqi, ham ichki bozorda avtozavodlar o'rtasida raqobat kuchaymoqda. Endi "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati ham mahsulotlar modelini kengaytirib, sifatini yaxshilash, tannarxni kamaytirib, raqobat muhitida ishlashga o'tishi zarur.

Taqdimotda shu boradagi chora-tadbirlar, tarmoq oldidagi vazifalar muhokama qilindi.

Xususan, mamlakatimizda yengil avtomobil ishlab chiqarishni 2030-yilgacha 1 million donaga yetkazish maqsad qilingan. Yig'ilishda bu borada 2024-yilda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari "O'zavtosanoat"ni transformatsiya

qilishni jadallashtirish, xarajatlarni kamaytirish lozimligini ta'kidladi.

Ma'lumki, bugungi kunda jahondagi yetakchi avtozavodlar elektromobil ishlab chiqarishga o'tmoqda. Mamlakatimiz sanoatchilari ham tezroq bu yo'nalishni o'zlashtirib, zamon talabiga moslashmasa, kelgusida bozorda o'rin topishi yanada qiyin bo'ladi.

Bu borada ilk loyihalar boshlangan. Kelgusi yilda shunday zavod ishga tushirilib, 10 mingta elektromobil ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish muhimligini ta'kidlab, tarmoq korxonalarida elektromobillar uchun butlovchi qismlar tayyorlashni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ida bu yil 3 ming 500 donadan ortiq texnika ishlab chiqarilgan. 2030-yilgacha bu miqdorni yiliga 16 ming donaga yetkazish mo'ljallangan.

Bu yil Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasteri tashkil etildi. U yiliga 15 ming dona traktor, tirkama va boshqa texnikalar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Lekin ularni sotish tizimi zamon talablariga mos kelmayapti.

Shu bois mahalliy texnika xaridini qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, klaster va fermerlarni jalb etib, bu borada buyurtmalar shakllantirish zarurligi ta'kidlandi va qo'shimcha choralar belgilandi.

Milliy traktorni mahalliylashtirish darajasini 35 foizga, osma texnika va tirkamalarni o'rta 60 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi.

O'Z.A.

INNOVATSIYA VA TAJRIBA UYG'UNLIGI — MUVAFFAQIYAT GAROVI

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida uzoqni ko'zlangan holda amalga oshirilayotgan tub islohotlar tizimida salmoqli natijalarga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Ayni chog'da qulay agrobiznes muhitini yaratish, bu borada investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, sohani sanoatlashtirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilyapti. Bunga hamohang ravishda dehqon va fermerlarimiz ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan holda ko'p yillik bilim va tajribalari bilan soha taraqqiyoti uchun azmu shipoat ko'rsatayotgani tashiga sazovor.

Munosabat

Yurtimiz qishloq xo'jaligi sohasi bu yil ham turli qiyinchiliklarga duch kelganiga barchamiz guvohmiz. Lekin mavjud muammolarga qaramasdan, barcha tarmoqda mo'l hosil yetishtirilib, avvalgi yillardagiga nisbatan yuqori marralarga erishildi.

Bu — joriy yil mamlakatimizda ilk bor 8 mln. 200 ming tonna g'alla, 3 mln. 800 ming tonna paxta, 15 mln. tonnadan ortiq sabzavot va poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka, 26 ming tonna pilla yetishtirilgani misolida ham yaqqol namoyon.

Prezidentimizning O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida qayd etilganidek, "...hozirgi o'ta murakkab iqlim sharoitida ko'plab sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan yerdan mo'l hosil yetishtirish — bu chinakam jasorat va matonat namunasidir".

Darhaqiqat, bugungi murakkab iqlim va kuchli raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi tizimida yangicha yondashuv, innovatsiya va ilg'or ishlarni amalga oshirish, intensiv va resurs tejaydigan texnologiyalarni izchil tatbiq etishni davmning o'zi taqozo qilmoqda. Keyingi paytda butun dunyoda bo'lgani kabi mintaqamizda ham yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani, ekologik muammolarni sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ana shu omillarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi sohada islohotlarni

yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga sifatli mahsulotlarni yetkazib berish, eksport geografiasini kengaytirishdek ustuvor masalalarda dasturlamal bo'lib xizmat qilayotir.

Qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlariga asoslangan, boshqaruvning mutlaqo zamonaviy shakli bo'lgan klaster tizimi joriy etilgani amalda o'zini to'la oqladi. Ushbu innovatsion tizim agrar sohani rivojlantirishning muhim vositasiga, qishloq aholisining kafolati daromad manbaiga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda asosiy e'tibor suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo'jalik va korxonalarning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, dehqon va fermerlarning og'irini yengil qilishga qaratilmoqda. Shu maqsadda yurtimizda 800 dan ziyod agroklastarlar tashkil etildi.

Bugungi kunda paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizdan ko'pi aynan ular tomonidan yetishtirilayotir. Agroklastarlar qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, sohani sanoatlashtirish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, pirovardida chetga xomashyo emas, qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot chiqarish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish kabi vazifalarni samarali amalga oshirmoqda.

Natijada birgina paxtachilikda tizimi qayta ishlash ko'rsatkichi 2,5 baravar oshdi. Hosilning 100 foizi mamlakatimizda qayta ishlashni tufayli kalava ip ishlab chiqarish 2 baravarga, tayyor mahsulot hajmi 3 baravarga ortdi. Bu boradagi yillik

eksport miqdori qariyb 3 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Sohaga raqamlashtirish jarayonlari, tomchilatib sug'orish texnologiyalari, innovatsiyalar jadal kirib bormoqda. Cho'llanish, yerlarning sho'tlanishi va degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproq unumdorligini oshirishga alohida ahamiyat berilayotir. Hozirgi kungacha 500 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilib, 3 mlrd. kub metr suv iqtisod qilangani va qariyb 1 mln. gektar yerning suv ta'minoti yaxshilangani ana shunday sa'y-harakatlar natijasidir.

Joriy yilda qo'shimcha ravishda 100 ming gektar yer foydalanishga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekilgani, mevali bog' va tokzorlar barpo etilgani yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qilayotir. Sohadagi ana shunday o'zgarishlar jarayonida aholi daromadlarini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Shu maqsadda oxirgi ikki yilda 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, 670 ming nafar yurtdoshimizga tanlov asosida berildi. Natijada 2 milliondan ortiq doimiy va mavsumiy ish o'rinlari yaratilib, qo'shimcha 3 mln. tonna mahsulot yetishtirildi.

Yer qadriini biladigan, uning har qarchidan unumli foydalanadigan, doimo izlanib, noyob tajriba maktabi yaratgan klaster rahbarlari, fermer va dehqonlar meva-sabzavot, sholi, dorivor giyohlar yetishtirish, chorvachilik va boshqa tarmoqlarda ham yuqori natijalarni qo'lga kirtayotgani e'tiborga molik.

Qishloq xo'jaligi — imkoniyatlarga boy soha. Bozorlarimiz fayzu barakasi, hayotimiz farovonligi ko'p jihatdan unga bog'liq. Xalqimiz dasturxonni to'kin-sochin bo'lishida ilg'or, zamon bilan hamnafas dehqon va fermerlarning xizmatlari beqiyos.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, unumdorlik darajasini ko'tarish, oborotdan chiqqan ekin maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlarni o'zlashtirish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilyapti.



3

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

Oliy Majlis Senatida

XALQARO REYTING VA INDEKSLAR BILAN ISHLASH HOLATI QAY DARAJADA?

Poytaxtimizda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uni Senat Raisi, Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yig'ilishda Respublika kengashi a'zolari, vazirlik va idoralar mutasaddilari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Aytilganidek, joriy yil davomida mamlakatimiz uchun ustuvor bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid 9 ta, siyosiy-huquqiy sohada 10 ta xalqaro reyting natijalari e'lon qilindi. Xususan, "Transparency International" xalqaro tashkilotining Korruptsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 14 pog'onaga ko'tarilib, 180 ta davlat orasida 126-o'rinni egalladi.

Logistika samaradorligi indeksida O'zbekiston o'z pozitsiyasini 11 pog'onaga yaxshilab, 138 ta mamlakat orasida 88-o'rinni band etdi. Bundan tashqari, Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksidagi respublikamiz ko'rsatkichlari 8 pog'onaga yuqorilab, 166 ta davlat orasida 69-o'rin hamda Iqtisodiy erkinlik indeksidagi ko'rsatkichlarimiz 8 pog'onaga yaxshilaniib, 176 ta mamlakat orasida 109-o'rin qayd etildi.

Tadbirda Hududlar huquq ustuvorligi indeksining 2022-

yil natijalari ham muhokama qilindi. Tahlillarga ko'ra, eng yaxshi ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlariga taalluqli.

Hududlarda qonun hujjatlariga rioya qilinishi indikatorida ijobiy ko'rsatkichlarga erishilgan bo'lsa, mahalliy iro organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati hamda hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi indikatorlari umumiy natija pasaygan.

Yig'ilishda Prezidentning 2022-yil 18-maydagi "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi ham ko'rib chiqildi.

Jumladan, xalqaro reytinglar tarkibiy indikatorlarida muntazam past baholalanib kelinayotgan soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilinishi kerak bo'lgan o'rta va uzoq muddatli strategiyalar loyihalari muhokama



2

O'ZBEKISTONNING SAYYOHLIK SALOHIIYATI JUDA ISTIQBOLLI VA SAMARALI

Parijida sayyohlik va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi va O'zbekiston bozoriga kirish istagida bo'lgan fransuz kompaniyalariga mo'ljallangan "French Tourism Days 2024 — Ouzbekistan" dasturi taqdim etildi.

Biz va jahon

Taqdimot O'zbekistonning Fransiya'dagi elchixonasi, "Business France" agentligi, "Dualest" kompaniyasi va "AFOR" assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Mamlakatimiz sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan tadbirda Fransiya sayyohlik kompaniyalari, ishbilarmon va madaniy doiralr vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston elchisi Sardor Rustamboyev,

"Dualest" kompaniyasi tijorat direktori Sofi Lanfranshi va "AFOR" assotsiatsiyasi rahbari Navbahor Xaniyazova mamlakatimizning boy turizm salohiyati haqida so'z yuritdi.

Har yili O'zbekistonga millionlab xorijiy sayyohlar tashrif buyurishi ta'kidlandi. Ularni O'zbekistondan go'zal tabiati, O'rta asrlarga oid musulmon me'morchiligining ulug'vor obidalari, gastronomiyasi, o'zbek xalqiga xos mehmondon'stlik o'ziga faol jalb etayotgani



3

Do'stlik rishtalari

MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR — DUNYO E'TIROFIDA

O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistondan zamonaviy tashqi siyosiy qiyofasi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichida keng ko'lami o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda.

Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasining beshinchi maqsadi "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish", deb nomlanganligi va ushbu maqsad aniq o'n ta ustuvor yo'nalishni qamrab olganligi mamlakatimizning ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish borasidagi islohotlariga yanada jadal sur'at bag'ishlaganining yorqin namunasi, deyish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimiz olis va yaqindagi, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik, uzoq muddatli va keng qirrali sheriklik aloqalarini

yanada kuchaytirish bo'yicha boshlagan tashqi siyosat yo'lini izchilik bilan davom ettirmoqda. Natijada mamlakatimizning mintaqa va xalqaro miqyosda obro'-e'tibori oshib, qator nufuzli xalqaro tashkilotlardagi o'rni mustahkamlandi, jahon maydonidagi tashabbuslari faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasining shu yil noyabr oyida Turkiyaning Antaliya shahrida bo'lib, Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi (TurkPA)ga a'zo parlamentlarning doimiy qo'mitalari yig'ilishida ishtiroki davomida ham bu boradagi erishilgan ijobiy natijalar alohida e'tirof etildi.



2

ADOLATLI TARAQQIYOT YO'LIDA

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhasida o'sish tendensiyasi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Albatta, bunday yangilanishlar, tarixiy evrilishlar o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu islohotlar zamirida davlatimiz rahbarining qat'iyati mujassam.

Nuqtai nazar

Bundan yetti yil avval Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. O'tgan davr mubaynida ushbu strategiya iqtisodiyotimiz barqaror o'sishining quydevori bo'lib xizmat qildi, desak, mubolag'a emas.

Birgina misol, valyuta bozori erkinlashdi. Milliy valyuta — so'mni ayiriboshlash imkoniyati yaratildi. Haqiqiy bozor iqtisodiyotini barpo etish maqsadida qabul qilingan ushbu tarixiy qarorlar tufayli makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlandi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq tartibotlar yengillashtirildi. Iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan orqada qolayotgan tumanlar va shaharlar taraqqiy etdi, aholining turmush sharoiti yaxshilandi. Qisqacha aytganda, Harakatlar strategiyasi doirasida hayotga tatbiq etilgan islohotlarni odamlar o'z hayotida seza boshladi.

Shundan so'ng islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. O'tgan qisqa davrda ushbu dasturiy hujjat doirasida ham odamlarni rozi qilish, aholi farovonligini ta'minlash, xalqimiz orzu-istaklari ro'yobi uchun salmoqli ishlar bajarildi. Xalq muallifligidagi tarixiy yana bir hujjat — Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan tashdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasidir. Inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, yaqin kelajakda amalga oshirilajak islohotlarning tub maqsadlarini qamrab olgan ushbu strategiya o'zining ustuvor yo'nalishlari bilan alohida ahamiyatga ega. Unda inson qadriini yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish eng oliy qadriyat sifatida belgilangan.

Umuman, mamlakatimizda keyingi yetti yillikda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy,

ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan mazkur hujjat, shubhasiz, O'zbekiston xalqini adolatli taraqqiyot yo'lida jipslashtiradi.

Avvalo, strategiya beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olgani bilan e'tiborga molik. Bu mamlakatda islohotlar samaradorligini keskin oshirish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etishdek buyuk maqsadlarga xizmat qiladi.

Hujjatning barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha belgilangan ikkinchi yo'nalishini tahlil qilsak, unda iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo'jaligi sohalarini yangi bosqichga olib chiqish borasida qator tashabbuslar ilgari surilayotgani diqqatga sazovor. Masalan, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish asosiy maqsad qilib olindi. Bunda kelgusi yetti yillikda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd. dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga



3

JADID BOBOLAR HAYOTI VA JASORATI

MILLIY ISTIQBOLIMIZNI KO'Z QORACHIG'IDEK ASRASHGA DOIM DA'VAT ETIB TURADI

Poytaxtimizda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzuidagi xalqaro konferensiya katta tayyorgarlik, qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojaati nufuzli anjumanga jam bo'lgan hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlarda taassurot qoldirdi.

Fikr

Shubhasiz, ushbu tarixiy konferensiya, uning qatnashchilariga yo'llangan murojaat teran mazmun-mohiyati hamda ahamiyati bilan nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakati har tomonlama o'rganishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Binobarin, Prezidentimiz murojaatida

ta'kidlanganidek, o'z mohiyatiga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala



4



Senat qo'mitalarida

ADVOKATLARNI AVTOMATIK TANLASH BELGILANYAPTI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi majlisida parlament yuqori palatasining navbatdagi yalpi majlisiga kiritilishi kutilayotgan qator qonunlar muhokama qilindi.

Dastlab "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun bilan mamlakatimiz fuqarolarining konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlangan malakali yuridik yordam olish huquqidan foydalanish

mexanizmi takomillashtirilmoqda. Endilikda jinoyat ishlari bilan bir qatorda, fuqarolik va ma'muriy ishlarda ham fuqarolarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilishi hamda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni inson omili aralashuvizis "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali avtomatik tanlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish

to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimi asosida ishda himoyachi (advokat) ishtirokini ta'minlash shartligi ko'rsatib o'tilmoqda.

Bundan tashqari, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishdagi ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e'tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to'rt soat vaqt berilishi ko'zda tutilmoqda.

Majlisda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi. U bilan parlament palatalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda.

Xususan, parlament palatalari faoliyatidagi bir-birini takrorlovchi vakolatlar aniqlashtirilmoqda. Senat a'zolari jami 65 nafar, shundan har bir ma'muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan saylanishi, 9 nafari Prezident tomonidan tayinlanishi belgilanmoqda.

Qonunchilik palatasi va Senatning o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati kiritilmoqda. 100 ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Senat, Ombudsman va Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishi mumkinligi belgilanmoqda. Parlament tekshiruvini Oliy Majlis palatalari a'zolari orasidan tenglik asosida tuziladigan birgalikdagi maxsus komissiya tomonidan o'tkazilishi ham nazarda tutilayotir.

Muhokama yakunida Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

FUQAROLARNING MA'MURIY SUDLARGA MUROJAAT QILISH IMKONIYATLARI KENGAYTIRILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi majlisida "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning odil sudlovdan foydalanish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati kengaytirildi. Ayni chog'da bu yangilanish va o'zgarishlarni qonun normalarida yanada mustahkamlash, avvalo, ularni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga moslashtirishni davrning o'zi taqozo etayotgandi.

Shu munosabat bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini fuqarolardan oldindan undirmasdan, ushbu bojni ishini ko'rib chiqish natijasiga ko'ra aybdor tomonidan undirish tartibini, shuningdek, davlat bojining ko'rsatilgan stavkasi miqdori pasaytirilishini nazarda tutuvchi o'zgarirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Mazkur qonun fuqarolarning ma'muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, majlisda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun ham qizg'in muhokama qilindi.

Qonunda budget siyosatini "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va 2020 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi belgilangan yo'nalish va maqsadlarga muvofiq amalga oshirish va uzoq muddatda fiskal barqarorlikni ta'minlash bo'yicha kiritilgan qoidalarga qat'iy amal qilish ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, yig'ilishda gender tenglikka erishishni budget jarayoniga integratsiyalash orqali gender tenglikka yo'naltirilgan budgetlashtirish va dasturiy budgetlashtirish tizimini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish yuzasidan muzokaralar o'tkazildi hamda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Majlis so'ngida Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JINOIY JAVOBGARLIK LIBERALLASHTIRILADI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida dastlab "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun atroflicha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan davlat dasturlari va tadbirlarni amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2024-yilda jami 53,1 trln. so'm ajratilishi ko'zda tutilgan.

Madaniyat vazirligiga 2024-yilda respublika budjetidan 1,1 trln. so'm, shu jumladan, vazirlik joriy xarajatlarga 820,4 mlrd. so'm, obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlarga 280 mlrd. so'm ajratilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, madaniyat sohasini rivojlantirish uchun jami 149,5 mlrd. so'm ajratish rejalashtirilmoqda. Jumladan, davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar 105 mlrd. so'm hamda xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston hududida kino ishlab chiqarish xarajatlarning bir qismini qoplash uchun 5 mlrd. so'm, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda madaniyat markazlarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun 7,5 mlrd. so'm ajratilishi belgilangan.

Yoshlar siyosati va sport vazirligiga 2024-yilda respublika budjetidan 1,8 trln. so'm, shu jumladan, vazirlikning joriy xarajatlarga 1,3 trln. so'm ajratish ko'zda tutilayotir. Sport sohasidagi davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun 980 mlrd. so'm ajratilishi belgilanmoqda.

Olimpiya o'yinlariga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun 250 mlrd. so'm, Paralimpiya

o'yinlari uchun esa 41 mlrd. so'm nazarda tutilgan.

E'tiborli jihatli, Davlat budjetida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni kengaytirish va ularni yanada keng qo'llab-quvvatlash hamda subsidiyalari uchun 150 mlrd. so'm yo'naltiriladi.

Madaniy meros agentligiga 2024-yilda respublika budjetidan 213,5 mlrd. so'm, jumladan, agentlikning joriy xarajatlari uchun 183,5 mlrd. so'm ajratish belgilanyapti. Bu boradagi davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun 131 mlrd. so'm ajratiladi.

Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash, arxeologik ishlar uchun 125 mlrd. so'm miqdorida hamda davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga 6 mlrd. so'm miqdorida mablag' ajratilishi nazarda tutilmoqda.

Majlisda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoiyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ham tahlil qilindi.

Unga ko'ra o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoiyat uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi belgilanmoqda. Qolaversa, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati olti oydan bir oygacha qisqartirilishi nazarda tutilayotir.

Majlis yakunida Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

XALQARO REYTING VA INDEKSLAR BILAN ISHLASH HOLATI QAY DARAJADA?



Qolaversa, xalqaro reytinglarning past ko'rsatkichli indikatori uchun mas'ul davlat organlari tomonidan soha va tarmoqlardagi mavjud tizimli xatoliklarni bartaraf etish loyihalarini ishlab chiqish uchun ilmiy grantlarga buyurtma berish holati tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda mamlakatimiz uchun ustuvor etib belgilangan reytinglar metodologiyalarining tez-tez o'zgarib turishi, ularning vaqtinchalik yoki mutlaqo tugatilishi amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani sababli xalqaro reytinglar bilan ishlash tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizda "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" ekani belgilanib, aholi ijtimoiy himoya qilinishi mamlakatimiz siyosatining bosh mezon sifatida ko'rilayotganligidan hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan keng chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligidan kelib chiqib, Ijtimoiy taraqqiyot indeksi va Ekologik samaradorlik indeksi bilan ishlash maqsadga muvofiqligi alohida qayd etildi.

Tadbirda muhokama qilingan masalalar yuzasidan matusadai vazirlik va idoralar rahbarlari axboroti eshtitilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi.

Xususan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reytinglardagi o'rinni yaxshilashga, jumladan, Global innovatsiya indeksining 2023-yil hisobotida qayd etilgan past indiktorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Yig'ilish yakunida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

SOLIQ VA BUDJET SIYOSATIDA QANDAY O'ZGARISHLAR KUTILMOQDA?



Qonun loyihasi bilan Soliq kodeksiga, shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Chiqidilar to'g'risida"gi qonunlarga hamda Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilaypti.

Loyihaga ko'ra, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha yengilliklar yaratilmoqda. Xususan, kameral soliq tekshiruvida tadbirkordan hujjat talab qilish, bino va hududlariga kirish yoki uni idoraga chaqirish taqiqlanmoqda. Qo'shimcha hisoblangan soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash joriy etilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan bir qator fikr-muholazalar o'rtaga tashlandi, asosli takliflar ilgari surildi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasiga professional va oliy ta'lim olishni yanada rag'batlantirishga qaratilgan o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasining ahamiyatli jihatlarga to'xtalib o'tdilar.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra ota-onalar oliy o'quv yurtlari yoki nodavlat maktab va bog'chalarda o'qiydigan farzandlariga ta'lim to'lovlari o'z oyluk ish haqlaridan to'lab bersa, 12 foiz daromad solig'ini qaytarib olishlari mumkin. Bu tartib o'zi ishlab, o'z shartnoma pulini to'lagan talabalar yoki turmush o'rtog'i uchun shartnoma pulini to'laganlarga ham amal qiladi. Ammo ota-onalar bunda 26 yoshga to'lmagan farzandlari uchungina to'lovni amalga oshirgan bo'lishi kerak edi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan esa ota-onalarga farzandlarining yoshidan qat'i nazar, ularning ta'lim olishi uchun yo'naltirilgan to'lovlarga nisbatan soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati berilmoqda.

Shuningdek, farzandlariga nodavlat maktabgacha ta'lim

tashkilotlari va (yoki) maktablar ko'rsatadigan ta'limga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun to'lanadigan oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlarga ham shunday imtiyoz beriladi.

Mazkur qonun loyihasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ham atroflicha ko'rib chiqildi. "Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokamasida esa yong'inlar profilaktikasi sohasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, aholining maishiy hayotida va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yong'inlar bilan bog'liq noxush hodisalar ro'y berayotganini qayd etildi.

Qonun tashabbuskorlarining aytishicha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirishga asos bo'ladi. Shu orqali huquqbuzarliklarning oldini olish, bunday toifadagi huquqbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutadigan qonun loyihasidagi muhim o'zgarishlarni birma-bir ko'rib chiqdi.

Xususan, 2024-yil 1-yanvardan tadbirkorlarning soliq idoralari bilan bo'ladigan nizolari ma'muriy sud vakolatiga o'tkazilib, soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatini 5 yildan 3 yilgacha qisqartirish ko'zda tutilmoqda.

2024-yil 1-apreldan boshlab ko'shilgan qiymat solig'i zanjirini ta'minlash hamda soliq ma'murchiligida yuzaga kelgan

ayrim muammolarni bartaraf etish maqsadida dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiy va veterinariya xizmatlari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari bekor qilinmoqda.

Fraksiya a'zolari ushbu muhim jihatlarni qo'llab-quvvatlab, bu tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishini qayd etdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zolari ham "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bilan tegishli hujjatlariga kiritilayotgan muhim o'zgartirishlarga ahamiyat qaratdi.

Chunonchi, 2024-yil 1-apreldan boshlab aholi uchun ichimlik suvi ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya-tozalashtirish, issiqlik ta'minoti ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha ko'shilgan qiymat solig'ining nol darajali stavkasini bekor qilish ko'zda tutilmoqda. Ushbu o'zgarishni fraksiya a'zolari e'tirof etgan holda bu fuqarolarning sug'va, tabiatga bo'lgan ehtiyoqkorona munosabati, mas'uliyati oshishiga ko'maklashishini ta'kidladi.

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabr gacha metallarni qazib oluvchi, shuningdek, uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarga maxsus renta solig'i ko'lanilmasligi nazarda tutilmoqda.

Qonun tashabbuskorlarining ta'kidlashicha, mazkur norma mamlakatimizda jozibador investitsiyaviy muhiti yaratishga qaratilgan.

Fraksiyalar yig'ilishlarida deputatlar qonun loyihalari yuzasidan partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildiradilar. Ayrim normalar bo'yicha asosli savollar o'rtaga tashlandi.

Muhokamalar yakunida ko'rib chiqilgan qonun loyihalari fraksiyalar a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".



Ta'kidlash kerakki, o'nggi yillarda O'zbekistonning turkiy tili davlatlar bilan o'zaro munosabatlari, tashqi siyosiy hamkorligi rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston — Turkiya munosabatlarini alohida e'tirof etish lozim.

O'zbekiston va Turkiyani ko'p asoslar — mushtarak til va tarix, uyug'un madaniy aloqalar, o'xshash an'ana va tutumlar, yagona din, azaliy do'stlik va qardoshlik munosabatlari birlashtirib turadi. Ikki xalq tamadduni geosiyosiy joylashuv va tarixiy taraqqiyotdan tortib, hozirgi rivojlanish bosqichida kechayotgan islohotlarning o'ziga xosligiga bo'lgan ko'plab umumiy jihatlarga ega.

Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgani ham ana shu qarodoshlikning yuksak ifodasi bo'lgan edi. 1996-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan. 2017-yil oktabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga ilk davlat tashrif chog'ida mamlakatlarimiz hamkorligini strategik sheriklik darajasiga ko'taradigan Qo'shma bayonot imzolandi.

O'tgan uch yilga aloqalar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralarida mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lami hamkorlikni rivojlantirish istiqbolini muntazam ravishda muhokama qilib borilmoqda. Bu mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari uchun qulay sharoit yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, qo'shma kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirish kabi ko'plab yo'nalishlarda o'z aksini topmoqda.

Shuningdek, 2020-yil 10-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk Millat majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhining tashkil etilgani ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, xalqaro maydonda davlatning hamda milliy parlamentning nufuzini mustahkamlash, parlament faoliyati, qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil sohalarida tajriba almashishni yo'lga qo'yish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, mintaqalararo o'zaro aloqalarni

MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR — DUNYO E'TIROFIDA

yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolaridan iborat milliy parlamentimiz delegatsiyasining joriy yil noyabr oyida Antiya shahrida o'tkazilgan "Ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va ayollarning huquqlarini kengaytirish" mavzuida Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi (TurkPA)ga a'zo parlamentlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tajriba almashinuvdagi ishtirok ham ana shunday hamkorlikning yana bir ifodasidir.

Ushbu xalqaro uchrashuvda O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Gender tenglikni ta'minlashning huquqiy va institutsional asoslari yaratilganligi yetkazildi.

Xususan, yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichidagi ko'rsatkichlarning asosiy omili inson va uning manfaatlarini hisoblanishi, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratish, adolati huquqiy davlatni qamr o'tirish mamlakatimizda demokratik islohotlarning bosh mezon ekanligi alohida qayd etildi.

Mamlakatimizda ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini yanada kuchaytirish maqsadida qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va

zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar ularning ijtimoiy-huquqiy faolligi hamda jamiyatdagi rolini oshirishga yo'l ochayotganligi xorijiy davlatlar parlament a'zolari tomonidan e'tirof etildi.

Ayniqsa, kuni kecha Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qo'zg'atish oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilganligi, hozirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ayol deputatlar ulushi 33 foiz ekanligi dunyo parlamentlari a'zolari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi. Chunonchi, TurkPaga a'zo Turkiya, Qirg'iziston va Ozarbayjon davlatlari parlamentlarida ayollar ulushi o'rtacha 20 foizni tashkil etadi.

Shu nuqtayi nazaridan, konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda Turkiya, Ozarbayjon va Qirg'iziston parlamentlari vakillari mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni e'tirof etish va O'zbekistonda tajribasini namuna sifatida ko'rsatib, uni ommalashtirish taklifi bildirildi. Xususan, Ozarbayjon Milliy Assambleyasining Oila, xotin-qizlar va bolalar masalalari qo'mitasi raisi Hijran Huseynova so'nggi yillarda O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholab, bu borada mamlakatimiz tajribasini yaqindan o'rganish zarurligini bildirdi.

Demak, bu — yurtimizda ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotidagi o'rini yanada mustahkamlash borasidagi islohotlar to'g'ri olib borilayotganining tasdiqi. O'z navbatida, bu ayni paytda O'zbekiston oqilona tashqi siyosat yuritayotganini, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi o'rni tobora yuksalib borayotganini ko'rsatadi, desak, ayni haqiqat.

Mavluda XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi.

JADID BOBOLAR HAYOTI VA JASORATI

MILLIY ISTIQLOLIMIZNI KO‘Z QORACHIG‘IDEK ASRASHGA DOIM DA‘VAT ETIB TURADI

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq qilish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidadagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, yangi O‘zbekiston va uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar mazkur konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda bugun o‘tmish voqeligini chuqur o‘rganib, istiqol va taraqqiyot yo‘lida jon fido qilgan ajdodlarimiz nomini oqlashga — tarixiy adolatni tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan 1030 dan ziyod vatandoshlarimiz nomi oqlangani so‘zimiz isboti.

Darhaqiqat, bugun ana shu qatag‘on davrining fojialarini “mutlaqo maxfiy” tamg‘asi ostida saqlab turgan po‘lat sandiqlar birmabir ochilmoqda, mustabid tuzumning mudhish qiyofasi yillar sarg‘aytirgan hujjatlarda namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi ishchi guruhi a‘zolari tunu kun mehnat qilib, ana shu hujjatlarni o‘rgangan holda, manfur siyosat qurbonlari — millatimizning ilg‘or vakillari sifatida qatag‘onga uchragan insonlar taqdirini xolisona yoritib kelmoqda.

Ana shunday yurtdoshlarimizdan biri — namanganlik Bo‘taboy Dadaboyev edi. 1917-yil inqilobidan

keyin hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar tomonidan Bo‘taboy Dadaboyev rus tilida yozuv-chizuvni yaxshi biladigan savodli, serg‘ayrat xodim sifatida Farg‘ona viloyati Yer ishlari qo‘mtasiga a‘zo qilib olinadi.

Tarixiy hujjatlarni ko‘zdan kechirar ekansiz, ba‘zan bir-biriga qarshi ko‘rsatma bergan kishilarning ism-familiyasi ham uchraydi. Ularning qaysi biri qo‘rqoq va sotqinu, qaysi biri aybsiz ekanini tezda anglab ololmaysiz. Bo‘taboy Dadaboyev faoliyati shu ma’noda g‘oyat murakkab bo‘lib, u haqda birdan hukm-xulosa chiqarish oson emas. U 1923-yil 14-apreldan 1924-yil 8-yanvargacha qadar Turkiston Respublikasi yustitsiya xalq komissari lavozimida ishlaganlardan o‘ninchisi hisoblanadi. B. Dadaboyev bir vaqtning o‘zida respublika prokurori bo‘lib ham faoliyat ko‘rsatgan.

1923-yilning avgust-sentabr oylarida Turkiston Respublikasi Markaziy ijroiya qo‘mtasi raisi vazifasida ham vaqtincha ishlaydi. 1924-yilning fevralidan boshlab Respublika yer ishlari bo‘yicha komissarining birinchi o‘rinbosari va shu komissariat qishloq xo‘jaligi boshqarmasining boshlig‘i sifatida ish olib boradi. 1924-yilning oxiridan boshlab Tojikiston Respublikasini tashkil etish va u yerda rahbarlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlarida qatnashadi. Hujjatlarda qayd qilinishicha, u o‘z faoliyatini millatga sodiq kadrlarni ko‘paytirish, ularni partiya va sovet apparatiga joylashtirishga safarbar etgan.

Ko‘sh, unda sovet tuzumiga xiyonat qilgan kishi sifatida qatl etilgan Bo‘taboy Dadaboyevning aybi nimada?

Tarixiy manbalarda quyidagilar bayon qilingan: 1937-yilning fojiali voqealari doirasida milliy respublikalarning juda ko‘plab

rahbarlari qatori Bo‘taboy Dadaboyevning ham yaqin o‘tmishda aksilinqilobiy tashkilot a‘zosi bo‘lgani “oshkor” bo‘lib qoladi va u partiya safidan o‘chiriladi. Ko‘pchilik safdoshlarining ayanchli taqdiriga guvoh bo‘lgan Bo‘taboy Dadaboyev to qamoqqa olinguniga qadar o‘zga yurtlarda yashirilib yuradi. 1937-yil 31-avgustda uni Ashxobod shahrida qo‘lga olishadi.

15kundavomida qiynoq iskanjasiga solingan B. Dadaboyev turli azoblarga giriftor qilinadi. Oxiri qiynoq azoblari uning irodasini sindiradi, u har qanday ko‘rsatma berishga majburlanadi. B. Dadaboyevning “delo”sidagi tergov hujjatlarida va 2-rang xavfsizlik komissari L. Belskiyga yozgan iqrornoma xatida jallodlar qaysi ism-familiyani qo‘shgan bo‘lsa, ularning hammasini o‘z safdoshlari sifatida oshkor etadi.

E’tibor bering, nahotki, o‘z xalqining mustaqil bo‘lishini orzu qilgan, uning rahbarlaridan biri bo‘lgan kishi shunchalik xiyonat ko‘chasiga kirgan bo‘lsa? Biroq qatag‘on tegirmonining ishlash usulidan, sovet “gestapochi”larining qamoqxona ichida mahbuslarga nisbatan yuvuzliklari va shafqatsizligidan boxabar tarixchilar 1937-1938-yillarga oid bu kabi soxta so‘roqnoma va iqromomalar qanday qiynoqlar evaziga qo‘lga kiritilganini yaxshi bilishadi.

Jazo tashkilotlari o‘z maqsadlariga erishish, vahshiyliklarini yashirish, qabih ishlarini niqoblash maqsadida surunkalab, soatlab oyog‘idan osilib, kaltaklangan, uxlamagan, chalajon va qariyb behush mahbuslarga o‘zlari to‘qib chiqargan uydirma, iqrornomalarga imzo chekitirish san’atini puxta egallabgina qolmay, ularni safdoshlarini avlodlar oldida ham badnom etish yo‘llarini yaxshi bilgan.

Bo‘taboy Dadaboyev “ishi”ga doir

tergov hujjatlarida keltirilishicha, o‘sha paytda millatparvar ziyolilar tomonidan Turkistonni sovet davlati changalidan ajratib olish maqsadida “Ittihad va taraqqiy” tashkiloti tuzilgan bo‘lib, unga Turor Risqulov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Sa’dulla Tursunxo‘jayev, Nizomiddin Xo‘jayev, Yusuf Aliyev, Ali Rasulov rahbarlik qilishgan. O‘zbekiston KP(b) Markaziy qo‘mtasi kotibi Akmal Ikromov, Xalq Komissarlari Kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayev, Yer va suv ishlari xalq komissari Rustam Islomov va boshqa yirik rahbarlar xayrixohlik ko‘rsatishgan. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya qo‘mtasi raisi Inomjon Xidiraliyev mazkur tashkilotga Bo‘taboy Dadaboyevni ham jalb etgan. Tashkilotning asosiy maqsadi Turkiston hududida yagona milliy davlatni barpo etish edi.

Tergov materiallarida qayd qilinishicha, B. Dadaboyev “bosmachilik harakatini har qanday yo‘l bilan qo‘llab-quvvatlashga, hatto ularga qurol-yarog‘ yetkazib berishga uringan”. “Ittihad va taraqqiy” tashkiloti a‘zosi sifatida milliy birlikka erishish, sovet hukumati xohishiga zid ravishda boy xo‘jaliklarning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, qishloqning sinfiy tabaqalashuviga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilgan.

...Sobiq ittifoq Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi

Umid qilamizki, Vatanimizning hur va ozod kungacha yetishini orzulagan, bu borada mardona kurashganlarga ko‘mak bergan, ularni qo‘llab-quvvatlagan chustlik arbob Bo‘taboy Dadaboyev kabi millat fidoyilarining taqdiri bundan buyon ham tarixchilarimiz tomonidan o‘rganiladi va bu mustaqil O‘zbekistonda o‘lib kelayotgan yosh avlodga saboq bo‘ladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kungacha osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga doimo da‘vat etib turadi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi rahbari, tarix fanlari doktori, professor.

UCHINCHI RENESSANS G‘OYASINING FAOL TARG‘IBOTCHILARI TAQDIRLANDI

Poytaxtimizda yurtimizda ilk bor tashkil etilgan “Renessans” milliy mukofoti g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda qator vazirlik va tashkilotlar xodimlari, jurnalistlar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Tanlov

Mazkur tadbir O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasining 20 yilligini nishonlash hamda ommaviy axborot vositalari xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, jurnalistika sohasiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlarni e’tirof etish, munosib baholash maqsadida assotsiatsiyaga a‘zo teleradiokanallar jurnalistlari o‘rtasida ilk bor tashkil etildi.

— Mamlakatimizda erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jahon arenalarida, turli xalqaro reytinglarda o‘z aksini topmoqda, — dedi assotsiatsiya raisi Sherzodxon Qudratxo‘ja. — O‘tgan yillar mobaynida axborot va media sohasini jadal rivojlantirish borasida zarur qonunchilik, me‘yoriy-huquqiy baza yaratildi. 2003-yilda ish boshlagan Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi negizida 2022-yili qayta tashkil etilgan O‘zbekiston milliy media assotsiatsiyasi faoliyatiga 20 yil to‘ldi. O‘tgan yillar davomida assotsiatsiya tomonidan a‘zo tele va radiokanallar auditoriyasini yanada kengaytirish, ularning faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, jurnalist va muxbirlarning malaka-ko‘nikmalarini, shuningdek, mediasavodxonligini oshirish, qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab samarali ishlar bajarildi. Aminmanki, jurnalistlarimiz bundan buyog‘iga yanada faol bo‘lishadi, chunki qilingan mehnatlar nazardan chetda qolayotgani yo‘q.

Marosim davomida yangragan turli kuy-qo‘shiqlar davraga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.

Tadbirda davlatimiz rahbarining uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasini targ‘ib etish maqsadida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, teleradio loyihalarni amalga oshirgan faol ijodkorlar tuzilmaning maxsus statuetkasi, faxriy yorlig‘i va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

— Bugunning odami tez va sifatli axborot olishni istaydi, bu yo‘ldagi yuk, albatta, jurnalistning gardaniga tushadi, — deydi “Eng yaxshi axboriy teledestur jurnalisti” nominatsiyasi g‘olibi Jahongir Olimov. — Bugunning jurnalisti bunga erishish uchun esa o‘z ustida ko‘p ishlashi lozim. Ko‘plab hamkasblarim qatorida yurtimizning jonkuyar jurnalistlari safidan joy olganidman xursandman. Bu rag‘bat va ishonch zimimizdagi mas’uliyatni yanada oshiradi, oldingidan ham ko‘proq mehnat qilamiz.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev hamda Bosh vazir o‘rinbosari Zulayho Mahkamova ishtirok etdi.

Rahmatjon BOBOJONOV
 (“Xalq so‘zi”).

KO‘RGAZMA

Samarqand viloyati badiiy ijodkorlar uyushmasining ko‘rgazmalar zalida “Usmoniylar imperiyasida diplomatiya va mehmondorchilik” mavzuida fotoko‘rgazma ochildi.

U Turkiya Respublikasi tashkil etilganing 100-yilligi munosabati bilan ushbu davlatning Samarqand shahridagi bosh konsulligi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

DIPLOMATIYA TARIXIDAN HIKOYA QILUVCHI IJOD MAHSULI

Mazkur ko‘rgazma katalogini Usmoniylar diplomatiyasi to‘g‘risidagi manbalarni jahon merosiga hadya etish va zamonaviy Turkiya diplomatiyasi an‘analarini yoritish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega ijod mahsuli, deyish mumkin. Chunki ko‘rgazma Usmoniylar imperiyasi o‘zidan oldingi turk-islam davlatlaridagi mavjud diplomatik rasm-rusumni davom ettirgan

holda mamlakatlar bilan munosabat o‘rnatish jarayonida ba’zi yangiliklar joriy qilib, o‘ziga xos diplomatiya yaratgani haqida ham so‘zlaydi.

Fotoko‘rgazmaga qo‘yilgan tarixiy suratlarda Usmoniylar imperiyasi tashkil topganidan XIX asrgacha bo‘lgan diplomatik aloqalar hamda siyosiy faoliyat aks etgan. Xususan, o‘sha asrda turli mamlakatlardan

yirik sulolalar vakillari, davlat arboblari, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Eron hukmdorlarining Istanbulga tashriflari tafsiloti yozma va ko‘rgazmali hujjatlar yordamida bayon qilingani barchada katta taassurot qoldirdi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
 (“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistraturasiga 2023/2024 o‘quv gili uchun qishki qabul boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2023/2024 o‘quv yili uchun to‘lov-shartnoma asosida kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllariga: “Global menejment”, “Moliya” sohalari bo‘yicha Biznesni boshqarish (MVA) va Loyiha boshqaruvi (RM) magistratura mutaxasssliklariga qishki qabul e‘lon qilmoqda.

Magistraturaga kirish istagini bildirgan nomzodlar oliy maktab qabul komissiyasiga maxsus sahifa <http://e-tinglovchi.gsbe.uz> orqali oliy maktab direktori nomiga quyidagi hujjatlarning nusxalarini ilova qilgan holda ariza bilan murojaat etadi:

davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari birinchi rahbarlarining imzosi qo‘yilgan tavsiya xati;

oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatning nusxasi;

pasport yoki ID karta (imtihon vaqtida asl nusxasi taqdim etiladi);

ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi belgilangan namunadagi hujjat (agar mavjud bo‘lsa).

Magistraturaga kirish imtihonlaridan (suhbat va test) muvaffaqiyatli o‘tgan

nomzodlar yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlarning aslini yoki ularning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarini oliy maktabga taqdim etadi.

Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar: oliy ma‘lumotga va oliy ta‘lim muassasasini tamomlagandan keyin kamida **uch yil** ish stajiga ega **45 yoshgacha** bo‘lgan (o‘qitishning faqat kunduzgi shakliga) nomzodlar suhbat va test sinovlari natijalari bo‘yicha ochiq tanlov asosida qabul qilinadi.

Magistraturaga kirish uchun hujjat topshirish muddati (davri) 2023-yilning 15-dekabridan 2024-yilning 15-yanvarigacha.

O‘qishga hujjat topshirish faqat elektron shaklda oliy maktabning <http://e-tinglovchi.gsbe.uz> maxsus sahifasi orqali har kuni 24 soat mobaynida amalga oshiriladi.

Ma‘lumot uchun telefonlar: 71-2390317, 71-2390315.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mirobod ko‘chasi, 25-uy.

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 672 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;

e’lonlar 71-259-74-55.



“UzdongJu Paint Co” MChJ QKning ijroiiga organi, ga’ni korxona direktori va uning o‘rinbosari lavozimiga tanlov o‘tkazilmoqda

UNDA QATNASHISH ISTAGINI BILDIRGAN NOMZODLAR QUYIDA KELTIRILGAN HUJJATLAR BILAN DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI TANLOV KOMISSIYASIGA MUROJAAT ETISHLARI MUMKIN.

1. Nomzod obyektivkasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasasining bakalavr diplomi yoki xorijda oliy ta’lim olganligi haqida bakalavr diplomi.

3. Magistr diplomi yoki xorijda oliy ta’lim olganligi haqida magistr diplomi.

4. Ilmiy unvoni (fan nomzodi, fan bo‘yicha falsafa doktori, fan doktori) va ilmiy darajani (dotsent, katta ilmiy xodim, professor) tasdiqlovchi hujjati.

5. Qo‘shimcha oliy ma’lumot olganligi (ikkinchi, uchinchi) haqidagi diplom.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga ko‘ra lavozimga tayinlanganligi bo‘yicha hujjat.

7. Davlat tashkilotlarining ma’muriy-boshqaruv lavozimlarida ish tajribasi.

8. Tegishli vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ijobiy tavsiyanomalar mavjud bo‘lgan taqdirda.

9. Xorijiy mamlakatlarda rahbarlik lavozimlarida (direktor, direktor muovini, menejer, supervayzer) ish tajribasi yoki xorijiy yurisdiksiyadagi masalalarni hal qilishning amaliy tajribasi. Ijobjiy tavsiyanomalar mavjud bo‘lsa.

10. Tanlov e‘lon qilinayotgan sohadagi rahbarlik tajribasini (boshqaruv raisi/direktor, boshqaruv raisi/direktor o‘rinbosari yoki rahbarlik lavozimiga tenglashtirilgan lavozimlar (bosh muhandis, bosh mexanik, bosh iqtisodchi, bo‘lim/sex boshlig‘i va boshqa.) tasdiqlovchi hujjatlar.

11. Xo‘jalik jamiyatlarining rahbarlik lavozimlarida ishlash tajribasini (uzoq yillardan buyon ishlaganligi) asoslantiruvchi hujjatlari.

12. Xo‘jalik jamiyatlari Kuzatuv kengashi a‘zosi sifatida ish tajribasi.

13. Davlat nazorat organi xodimi, sudya, Qonunchilik palatasi deputati yoki Senat

a‘zosi sifatida bir yildan kam bo‘lmagan ish tajribasi.

14. Xorijiy tillardan (rus, ingliz, koreys, nemis, fransuz tillari) birini mukammal bilishi, qolganlaridan ikkitasi yoki hammasini bilishi.

15. Amal qilish muddatiga ega korporativ boshqaruvchi malaka attestati mavjud bo‘lgan taqdirda.

16. Qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxasssi, auditor, sug‘urtalovchi, baholovchi, sud boshqaruvchisi malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi amal qilish muddatiga ega hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda.

17. Kompyuter bilimdonlik — “MS Office”, “MS Excel” — ishonchli foydalanish.

18. Hujjatlar yopiq konvertlarda komissiya a‘zolariga 2023-yil 30-dekabrga qadar taqdim etiladi.

(Arizalarni qabul qilish vaqti soat 9:00 dan 18:00 gacha).

Murojaat uchun telefonlar: 74-223-25-06, 74-223-21-72.

Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 126-uy, Kengashlar uyi binosi, 4-qavat, 402-xona.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 23.45

1 2 3 4 5 6